



MAVZU:XALQ PEDAGOGIKASIDA XALQ AMALIY SAN'ATI VA XUNARMANDCHILIGI

MAQOLA.

*Xiyasova Gulgora – “University of Management and Future Technologies”
universiteti 558-guruh talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalq pedagogikasida xalq amaliy san'ati va hunarmandchilikning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Xalq san'ati va hunarmandchiligi asrlar davomida milliy madaniyatning muhim qismi sifatida shakllangan bo'lib, yosh avlodni tarbiyalashda ulkan ahamiyatga ega. Maqolada xalq hunarmandchiligi turlarining pedagogik jihatlari va ularning o'quv jarayonidagi o'rni haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: xalq pedagogikasi, xalq amaliy san'ati, hunarmandchilik, tarbiya, milliy meros, madaniy qadriyatlar.

Kirish:

Har bir xalqning madaniyati va an'analari o'ziga xos meros sifatida avloddan-avlodga yetib keladi. Shu jihatdan xalq pedagogikasi ham milliy qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirishda muhim vosita hisoblanadi. Xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi esa nafaqat moddiy madaniyatning ajralmas qismi, balki yoshlarni mehnatsevarlik, ijodkorlik va estetik did bilan tarbiyalashning samarali vositasidir. Ushbu maqolada xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligining pedagogik ahamiyati, uning ta'lif jarayonidagi o'rni va yosh avlod tarbiyasiga ta'siri tahlil qilinadi.

1. Xunarmandchilik insonning ishlab chiqarish faoliyati bilan vujudga kelib jamiyat rivojlanishi davomida asta- sekin dehqonchilik va chorvachilikdan ajralib chiqdi, turli ijtimoiy tarixiy davrlar doirasida texnika rivoji bilan aloqador holda takomillasha bordi, turli iqtisosliklar, (kulollik, duradgorlik, temirchil8k, miskarlik, binokorlik, toshtaroshlik, o'ymakorlik, kashtado'stlik, konchilik, tikuvchilik,



zargarlik, degezlik, rixtagarlik, zardo'stlik, bo'yoqchilik, kemasozlik, tunikasozlik va boshqalar) ga ajratiladi.

Uy xunarmandchilik o'rta asrlarda xunarmandchilikning eng kop tarqalgan turi bo'ldi. Xunarmandchilikning bu turi natural xo'jalikning ajralmas qismi hisoblanadi. Shaharlar rivoji bugotma bilan xunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarishning jadal usishi bilan o'zviy bog'liq. Natijada xunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda xunarmandchilik maxsulotlari tavarga aylandi, 2.tovar ayrboshlash uchun ishlab chiqarildi. Davr taqazosi bilan xunarmanchilikning yangi-yangi turlari vujudga keldi.

Mustaqillik yillarida xalq amaliy san'atida alohida etibor berildi. Xalq ustalarining mexnatlari qadr topdi. Sanoatlashuv sabab yo'qolib ketish darajasiga kelgan xunarmandchilik turlari qayta tiklandi, bir necha yuz Milliken sulolalar davonchilariga alohida etibor ko'rsatildi, xunarmandchilik markazi bo'lgan shaxarlarimizda usta- shogirt maktablari tashkil etildi. Milliy xunarmadchilik va amaliy san'ati Canada rivojlantirish, xalq ustalarini yanada qullab- quvvatlash, ularni mexnatlarini munosib rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi xalq ustalari, xunarmandlari va mussavirlari „Xunarmand" uyushmasi tashkil qilindi.

O'zbekistondagi xunarmadchilik chuqur ixtisoslashgan bo'lib, o'ziga xilma- xil kasb korlarni birlashtirgan.

Sharqdagi musulmon usta xonalarida bo'lgan kabi O'zbekistonda chevalier, kashtachilik bilan ayollar uyda utirib shug'ullanishgan.

3. Xunarmandchilikning ijtimoiy strukturasida usta, xalfa va shogirt kabi ijtimoiy toifalar mavjud bo'lgan. Xunarmandchilikning ichki va tartib qoidalarini uning nizomi sifatidagi „Risolalar" belgilab bergan. Xar bir kasbning o'z raxnomosi yani piriva,,Risolasi" bo'lgan, avlotdan avlodga o'tuvchi odatlari va udumlariga royal etilgan. Masalan, ish boshlashdan oldin usta o'z pirini yodga olib uydan madad so'rash, shogirdiga fotixa berish kabi odatlarga amal qilishgan.

Xulosa:

Xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi xalq pedagogikasining ajralmas qismi bo'lib, yosh avlod tarbiyasida muhim o'rinn tutadi. Ular bolalar va yoshlarga



milliy qadriyatlarni singdirish, mehnatsevarlik va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Hunarmandchilik san'ati nafaqat estetik didni shakllantiradi, balki amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish orqali kasbiy yo'nalish tanlashga ham yordam beradi. Shu sababli xalq pedagogikasida xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi an'analarini saqlab qolish va ta'lim tizimiga keng joriy etish muhim vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O'quvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni o'qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.
2. Хайдаров, С. (2023). Pedagogik faoliyatda o'qituvchi o'zida kompetentlik sifatlarini shakillantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 64–67.
3. Хайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.
4. Хайдаров С. (2024). Spiritual influence on child education in families. Web of Teachers: Inderscience Research. 2 (11). 203-205.
5. Хайдаров С. (2025). Оилаларда фарзанд тарбиясига руҳий таъсир ўтказиш. Modern Education and Development. 3 (17). 23-27.
6. Khaydarov S.A. (2025). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. Modern Education and Development. 3 (17). 28-33.
7. Xaydarov S.A. (2025). Ijtimoiy-gumanitar fanlarda raqamli metodlardan foydalanish yo'llari. NEW RENAISSANCE international scientific journal. 2(1). 91-94.
8. Xaydarov S.A. (2025). Yoshlarda vatanparvarlik hissini tarbiyalashda Boburnoma asariga ishlangan miniatyuralarning ahamiyati. Til va adabiyot.uz. 2.11-12.